

OLIMLAR NIGOHİ

ILMIY OMMABOP JURNAL

6-SON 2026-YIL

ISSN 3060-5458



BUXORO -2026



OLIMLAR NIGOHI

ilmiy ommabop jurnal

6-son 2026-yil

*Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi.*

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-aprel kuni № 720096-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA:

| Mualliflar | Maqola sarlavhasi | Yo'nalishi | Bet |
|----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|-----|
| <i>ADIZOVA GULNAVOZ FARHODOVNA</i> | NOTO'LIQ OILA FARZANGLARIDA AGRESSIVLIK, XAVOTIR VA KOPING STRATE- GIYALARINING O'ZARO ALOQADORLIGI | PSIXOLOGIYA | 3 |
| | ВЗАИМОСВЯЗЬ АГРЕССИВНОСТИ, ТРЕВОЖНОСТИ И КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ У ДЕТЕЙ ИЗ НЕПОЛНЫХ СЕМЕЙ | | |
| | THE INTERRELATIONSHIP OF AGGRESSION, ANXIETY, AND COPING STRATEGIES AMONG CHILDREN FROM SINGLE-PARENT FAMILIES | | |
| <i>SALOMOVA SHAXINABONU OLIM QIZI</i> | PUBERTAT DAVRIDAGI QIZLARDA INSULINREZISTENTLIK VA DISLIPIDEMI- YANING O'ZARO BOG'LIQLIGI HAMDA ULARNING METABOLIK SINDROM PATOGENE- ZIDAGI ROLI | | 6 |
| | ВЗАИМОСВЯЗЬ ИНСУЛИНОРЕЗИСТЕНТНОСТИ И ДИСЛИПИДЕМИИ У ДЕВОЧЕК В ПУБЕРТАТНОМ ПЕРИОДЕ И ИХ РОЛЬ В ПАТОГЕНЕЗЕ МЕТАБОЛИЧЕСКОГО СИН- ДРОМА | | |
| | THE INTERRELATION BETWEEN INSULIN RESISTANCE AND DYSLIPIDEMIA IN PU- BERTAL GIRLS AND THEIR ROLE IN THE PATHOGENESIS OF METABOLIC SYNDROME | | |
| <i>IXLOSOV KOMIL MIRZAAXMATOVICH</i> | TA'LIM JARAYONIDA BILIMLARNI TIZIMLASHTIRISH ORQALI FIKRLASH QOBILYATINI SHAKLLANTIRISH | PEDAGOGIKA | 12 |
| | ФОРМИРОВАНИЕ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ СИСТЕМАТИЗАЦИИ ЗНАНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ | | |
| | FORMING THINKING ABILITY THROUGH THE SYSTEMATIZATION OF KNOWLEDGE IN THE EDUCATIONAL PROCESS | | |
| <i>MATCHANOVA MAQSUDA RUZIMBOYEVNA</i> | BAHOLASH NATIJALARINI BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA HIMOYA QILISH MODEL I VA ALGORITMLARI | PEDAGOGIKA | 17 |
| | МОДЕЛИ И АЛГОРИТМЫ ЗАЩИТЫ ДАННЫХ ОЦЕНИВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН | | |
| | A BLOCKCHAIN-BASED SECURITY MODEL AND ALGORITHMS FOR EDUCATIONAL ASSESSMENT RESULTS | | |

| | | | |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|----|
| <i>KO'SHKINBAYEV DAVLETBAY NURJANOVICH</i> | OLYI TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI REYTING VA TRANSKRIPTLARNI XAVFSIZ SAQLASH UCHUN BLOKCHAYN ARHITEKTURASINI LOYIHALASH | PEDAGOGIKA | 22 |
| | ПРОЕКТИРОВАНИЕ АРХИТЕКТУРЫ БЛОКЧЕЙН ДЛЯ БЕЗОПАСНОГО ХРАНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ РЕЙТИНГОВ И АКАДЕМИЧЕСКИХ ТРАНСКРИПТОВ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ | | |
| | DESIGNING A BLOCKCHAIN ARCHITECTURE FOR SECURE STORAGE OF DIGITAL ACADEMIC RANKINGS AND TRANSCRIPTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS | | |



Matchanova Maqsuda Ruzimboyevna
Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

BAHOLASH NATIJALARINI BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA HIMOYA QILISH MODEL VA ALGORITMLARI

***Annotatsiya.** Maqolada an'anaviy markazlashgan onlayn imtihon va baholash tizimlaridagi (LMS/HEMIS) xavfsizlik zaifliklari, ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish hamda soxtalashtirish xavflarini bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan. Baholash natijalarining daxlsizligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida blokcheyn texnologiyasiga asoslangan taqsimlangan ochiq, gibrud hamda xususiy modellar tahlil qilingan. Ma'lumotlar oqimi tizimida Keccak (SHA-3), SHA-256 xesh-funksiyalari, Merkle daraxti iyerarxiyasi, raqamli imzolar va OpenCV asosidagi biometrik identifikatsiya mexanizmlarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, smart-kontraktlar yordamida baholash jarayonlarini va raqamli sertifikatlash tizimini avtomatlashtirish, tarmoq holatining o'zgarish algoritmlari bayon etilgan. Tadqiqot yakunida oliy ta'lim muassasalarida smart-kontraktlar va xeshlash infratuzilmasiga asoslangan "raqamli ta'lim izi" ekotizimini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Blokcheyn, baholash tizimi, ma'lumotlar daxlsizligi, smart-kontrakt, kriptografik xesh, Keccak (SHA-3), Merkle daraxti, raqamli ta'lim izi, avtomatlashtirilgan sertifikatlash.*

МОДЕЛИ И АЛГОРИТМЫ ЗАЩИТЫ ДАННЫХ ОЦЕНИВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН

***Аннотация.** В статье исследуются уязвимости безопасности, риски манипулирования данными и фальсификации, присущие традиционным централизованным системам онлайн-экзаменов и оценивания (LMS/HEMIS). В целях обеспечения неприкосновенности и надежности результатов оценивания анализируются децентрализованные публичные, гибридные и приватные модели на базе технологии блокчейн. Освещается роль криптографических механизмов в системе потока данных, включая хэш-функции Кеccak (SHA-3), SHA-256, иерархию дерева Меркла, цифровые подписи и механизмы биометрической идентификации на основе OpenCV. Также описываются автоматизация процессов оценивания и системы цифровой сертификации с помощью смарт-контрактов, а также алгоритмы изменения состояния сети. В заключении исследования даны практические рекомендации для высших учебных заведений по внедрению инфраструктуры «цифрового образовательного следа» на основе смарт-контрактов и систем хэширования.*

***Ключевые слова:** Блокчейн, система оценивания, целостность данных, смарт-контракт, криптографический хэш, Кеccak (SHA-3), дерево Меркла, цифровой образовательный след, автоматизированная сертификация.*

A BLOCKCHAIN-BASED SECURITY MODEL AND ALGORITHMS FOR EDUCATIONAL ASSESSMENT RESULTS

***Abstract.** The article investigates security vulnerabilities, risks of data manipulation, and falsification inherent in traditional centralized online examination and assessment systems (LMS/HEMIS). To ensure the integrity and reliability of assessment results, decentralized public, hybrid, and private models based on blockchain technology are analyzed. The role of*



cryptographic mechanisms within the data flow system, including Keccak (SHA-3) and SHA-256 hash functions, Merkle tree hierarchies, digital signatures, and OpenCV-based biometric identification, is elucidated. Furthermore, the automation of grading processes and digital certification using smart contracts, as well as network state transition algorithms, are described. The study concludes with practical recommendations for higher education institutions to implement a "digital educational footprint" infrastructure based on smart contracts and hashing systems.

Key words. *Blockchain, assessment system, data integrity, smart contract, cryptographic hash, Keccak (SHA-3), Merkle tree, digital educational footprint, automated certification.*

Kirish. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta'lim tizimida baholash faoliyatini tashkil etish, natijalarni qayd etish, saqlash va ulardan foydalanish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash natijalari elektron axborot tizimlarida yuritilishi tobora kengayib bormoqda. Elektron baholash tizimlari ta'lim jarayonining shaffofligini oshirish, ma'lumotlarga tezkor ishlov berish, statistik tahlillarni amalga oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini ta'minlasa-da, mazkur tizimlarda saqlanayotgan ma'lumotlarning xavfsizligi, o'zgarasligi, yaxlitligi va ishonchliligini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Baholash natijalari ta'lim sifati monitoringi, akademik reytinglarni shakllantirish, stipendiya va grantlar ajratish, diplom va sertifikatlarni rasmiylashtirish hamda bitiruvchilarning malakasini tasdiqlash kabi muhim jarayonlarning asosini tashkil etadi. Shu sababli ushbu ma'lumotlarning noqonuniy o'zgartirilishi, qalbakilashtirilishi yoki yo'qolishi nafaqat ta'lim muassasasining axborot xavfsizligiga, balki jamiyatning ta'lim tizimiga bo'lgan ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy markazlashgan ma'lumotlar bazalarida yagona boshqaruv markazining mavjudligi esa kiberhujumlar, ichki xavfsizlik tahdidlari va texnik nosozliklar oqibatida ma'lumotlarning buzilishi yoki yo'qolishi xavfini oshiradi.

So'nggi yillarda blokcheyn texnologiyasi ma'lumotlarni markazlashmagan holda saqlash, ularning o'zgarasligini kafolatlash va har bir amalga oshirilgan operatsiyani kriptografik usullar yordamida ishonchli qayd etish imkoniyatlari bilan ko'plab sohalarda keng qo'llanila boshladi. Mazkur texnologiyaning asosiy afzalliklari – ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda saqlanishi, har bir blokning avvalgi blok bilan kriptografik bog'lanishi, konsensus mexanizmlari orqali tasdiqlanishi hamda yozilgan ma'lumotlarni retrospektiv ravishda o'zgartirishning deyarli imkonsizligi hisoblanadi. Aynan shu xususiyatlar blokcheyn ta'lim sohasidagi muhim axborot resurslarini, jumladan, baholash natijalarini himoya qilish uchun istiqbolli texnologiyalardan biriga aylantirmoqda.

Dunyo amaliyotida blokcheyn asosida diplomlar, sertifikatlar, akademik transkriptlar va malaka hujjatlarini verifikatsiya qilish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, baholash natijalarini real vaqt rejimida himoya qilish, ularni blokcheyn infratuzilmasiga integratsiya qilish hamda ushbu jarayonning samarali algoritmlarini ishlab chiqish masalalari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ta'lim muassasalarining mavjud axborot tizimlari bilan moslashuvchan ishlaydigan, yuqori unumdorlikka ega va amaliy jihatdan qo'llash mumkin bo'lgan himoya modellarini yaratish zamonaviy ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda baholash natijalarining yaxlitligi, maxfiyligi va autentikligini ta'minlashga qaratilgan blokcheyn texnologiyasi asosidagi himoya modeli hamda uning ishlash algoritmlari ishlab chiqiladi. Taklif etilayotgan model baholash natijalarini kriptografik xeshlash, bloklarga joylashtirish, konsensus mexanizmi orqali tasdiqlash va taqsimlangan reyestrda saqlash



tamoyillariga asoslanadi. Natijada baholash ma'lumotlarini noqonuniy o'zgartirish, soxtalashtirish yoki yo'qotish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi, shuningdek, ularning haqiqiylikini istalgan vaqtda tezkor tekshirish imkoniyati yaratiladi.

An'anaviy onlayn imtixon va baholash tizimlari (LMS/HEMIS) markazlashgan ma'lumotlar bazalariga tayangani sababli jiddiy xavfsizlik zaifliklariga ega. Bunday tizimlarda ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarni qalbakilashtirish va natijalarni manipulyatsiya qilish xavfi yuqori bo'lib, bu baholashning ishonchliligiga putur yetkazadi. Markazlashgan tizimlarda yagona nosozlik nuqtasi (central point of failure) mavjud bo'lib, u butun tizim xavfsizligini kiberhujumlar qarshisida zaif qoldiradi. Shuningdek, inson omili, ma'lumotlar bazasi ma'murlari tomonidan natijalarning o'zgartirilishi yoki hujjatlarning soxtalashtirilishi akademik adolat tamoyillariga ziddir. Blokcheyn texnologiyasi o'zining markazsizlashgan tabiati va ma'lumotlarning o'zgarimasligi bilan ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zaruriy texnik infratuzilmani taqdim etadi.

Baholash natijalarini himoya qilishda manbalarda asosan quyidagi modellar taklif etilgan:

Markazsizlashtirilgan ochiq reyestr (Public Ledger): Masalan, Ethereum platformasidan foydalanish. Bu modelda barcha imtixon savollari, talabalar javoblari va natijalari tarmoqning barcha tugunlarida taqsimlanadi.

Gibrid va xususiy modellar: Quorum va Hyperledger Fabric kabi platformalar orqali kirish huquqi cheklangan (permissioned) tarmoqlar yaratish mumkin, bu esa oliy ta'lim muassasasining ichki xavfsizlik talablariga mos keladi.

Ma'lumotlar oqimi tizimi: O'qituvchi moduli: Imtixon savollari yaratiladi, grading qoidalari o'rnatiladi va barcha ma'lumotlar Keccak (SHA-3) algoritmi bilan xeshlanib, blokcheynga yuklanadi.

Identifikatsiya: Talaba OpenCV kutubxonasi yordamida yuzni tanish texnologiyasi orqali tizimga kiradi.

Tranzaksiyani qayd etish: Talabaning har bir javobi alohida tranzaksiya sifatida blokcheyn tarmog'iga uzatiladi.

Blok yaratish: Tranzaksiyalar tekshiriladi, guruhlanadi va oldingi blok bilan kriptografik xesh orqali bog'lanib, o'zgarimas zanjir hosil qiladi.

Baholash ma'lumotlarining daxlsizligini ta'minlashda quyidagi kriptografik mexanizmlar qo'llaniladi:

Xesh-funksiyalar: Ma'lumotlarning butunligini saqlash uchun Keccak (SHA-3) va SHA-256 algoritmlaridan foydalaniladi. Ushbu funksiyalar yordamida yaratilgan xesh-qiyamat ma'lumotning "raqamli barmoq izi" bo'lib xizmat qiladi; ma'lumotda hatto bitta bit o'zgarishi ham mutlaqo boshqa xeshni hosil qiladi, bu esa o'zgartirishni darhol aniqlash imkonini beradi.

Merkle Tree (Merkle daraxti): Uzluksiz ta'lim (lifelong learning) natijalarini iyerarxik tarzda saqlashda qo'llaniladi. Bunda T1–T8 ko'rinishidagi tranzaksiyalar (masalan, T1 – rasmiy kurslar, T5 – ko'nikmalar, T7 – sertifikatlar) umumiy "Lifelong Learning Block"ning ildiz xeshini hosil qiladi.

Raqamli imzolar: Har bir baholash natijasi foydalanuvchining shaxsiy kaliti bilan imzolanadi, bu esa natijaning muallifligini kafolatlaydi.

Konsensus: Ma'lumotlar bir nechta mustaqil tugunlar tomonidan konsensus algoritmlari orqali tasdiqlanadi, bu esa markaziy nazoratning yo'qligini va natijalarning haqqoniylikini ta'minlaydi.

Smart-kontraktlar yordamida baholashni avtomatlashtirish. Smart-kontraktlar – bu blokcheyn tarmog'ida dasturlangan, shartlar bajarilganda avtomatik ishga tushuvchi algoritmlardir. Ularning baholash tizimidagi roli quyidagicha:

Avtomatlashtirilgan baholash: Imtixon tugashi bilan natijalar oldindan belgilangan mezonlar asosida tizim tomonidan hisoblanadi va inson aralashuvisiz blokcheynga yoziladi.



Holat o'zgarishi algoritmi: Ma'lumotlarning blokcheynda bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi quyidagi funksional ko'rinishda tasvirlanadi:

$$\sigma \rightarrow \sigma + 1$$

Bu o'tish Ψ yoki Π o'tish funksiyalari orqali amalga oshiriladi, bu yerda σ – blokcheyn tarmog'ining joriy holati.

Sertifikatlash: Talaba kerakli kreditlarni to'plashi bilanoq smart-kontrakt avtomatik tarzda raqamli diplom yoki sertifikat shakllantiradi va uning haqiqiyiligini OID-klassifikator orqali tasdiqlaydi.

Xulosa. Blokcheyn texnologiyasi va kriptografik algoritmlarning ta'lim tizimiga integratsiyasi "post-exam alterations" (imtihondan keyingi natijalarni o'zgartirish) ehtimolini butunlay yo'q qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu modellar nafaqat baholash natijalarini himoya qiladi, balki ta'lim tizimini an'anaviy "factory model" (yagona qolipdagi ta'lim)dan individual va moslashuvchan "upshelling" (shaxsiy yutuqlar ekotizimi) bosqichiga olib chiqadi. Amaliy tavsiya sifatida, oliy ta'lim muassasalariga Ethereum yoki Quorum platformalarida smart-kontraktlar va SHA-3 xeshlash tizimiga asoslangan "raqamli ta'lim izi" (digital educational footprint) infratuzilmasini joriy etish taklif etiladi.

Mazkur tadqiqotda baholash natijalarini himoya qilishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, baholash ma'lumotlarining yaxlitligi, ishonchliligi va o'zgarimasligini ta'minlashga qaratilgan model hamda uning ishlash algoritmlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy markazlashgan ma'lumotlar bazalarida baholash natijalarining noqonuniy o'zgartirilishi, qalbakilashtirilishi yoki yo'qolishi bilan bog'liq xavflar mavjud bo'lib, blokcheyn texnologiyasi ushbu muammolarni samarali bartaraf etish imkoniyatiga ega.

Taklif etilgan model baholash natijalarini shakllantirish, kriptografik xeshlash, bloklarga joylashtirish, konsensus mexanizmi orqali tasdiqlash va taqsimlangan reyestrda saqlash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Mazkur algoritmlar asosida baholash ma'lumotlarining autentikligi, o'zgarimasligi va kuzatuvchanligi ta'minlanadi. Natijada har qanday ruxsatsiz o'zgartirish yoki soxtalashtirishga urinish tizim tomonidan aniqlanadi va baholash natijalarining ishonchlilik darajasi sezilarli ravishda oshadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, blokcheyn texnologiyasining taqsimlangan arxitekturasi yagona boshqaruv markaziga bog'liqlikni kamaytiradi, tizimning barqarorligini oshiradi hamda ma'lumotlarning uzluksiz saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, kriptografik himoya vositalari va konsensus mexanizmlarining qo'llanilishi baholash natijalarining maxfiyligi, yaxlitligi va inkor etib bo'lmasligini kafolatlaydi. Bu esa ta'lim muassasalari, ish beruvchilar hamda davlat organlari o'rtasida akademik ma'lumotlarga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan modelni elektron jurnal tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari, ta'limni boshqarish axborot tizimlari hamda akademik reytinglarni yuritish jarayonlariga integratsiya qilish imkoniyatlari asoslab berildi. Mazkur yechim baholash natijalarini real vaqt rejimida himoya qilish, ularning haqiqiyiligini tezkor tekshirish hamda akademik ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt, aqlli shartnomalar (Smart Contracts), raqamli identifikatsiya tizimlari va zamonaviy kriptografik protokollarni blokcheyn asosidagi baholash tizimlari bilan integratsiya qilish, shuningdek, tizimning masshtablanuvchanligi, tranzaksiyalar tezligi va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi algoritmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.



Путро А. В. Технология блокчейн в сфере образования: проверка дипломов и сертификатов // Информационные технологии. – 2025. – С. 129-130.

Токтарова В. И., Вершинин Н. А. Технология блокчейн в системе высшего образования: возможности и перспективы внедрения // Вестник Марийского государственного университета. – 2023. – Т. 17. – № 1. – С. 38–48. – DOI: 10.30914/2072-6783-2023-17-1-38-48.

Chaudhari M.A., Ghodake K.S., Aher P.S., Borade A.S. Enhancing the Reliability and Security of Online Exam Systems Using Blockchain Technology // IJIRMP. – 2025. – Vol. 13. – Issue 2. – ISSN: 2349-7300.

Sireesha M., Balaji O., Harshitha K., Reddy Naik M., Arifullah S. An Innovative Method For Ensuring The Accuracy Of Online Exam Results Via Blockchain Technology // International Journal of Computational Learning & Intelligence. – 2025. – Vol. 04. – Issue 04. – P. 591. – DOI: 10.5281/zenodo.15235045.

Fleener M. J. Blockchain assessment: the future of credentialing // South Florida Journal of Development. – Miami, 2024. – Vol. 5. – № 12. – P. 01-17. – DOI: 10.46932/sfjdv5n12-015.

Курбацкий В. Н. Технология блокчейн как основа формирования цифрового образовательного следа // Высшая школа: проблемы и перспективы : материалы 14-й Международной научно-методической конференции. – Минск : РИВШ, 2019. – С. 274-277.

Yi W., Chen J., Wang C., Weng L. Design and Implementation of a Blockchain-Based Self-Directed Learning Process Evaluation Traceability Platform // Computer tools in education. – 2023. – № 4. – P. 70–81. – DOI: 10.32603/2071-2340-2024-4-70-81.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОҲНОМА

№ 720096

"FAN ISTIQBOLLARI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги
гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669787

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
311171430

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
16.04.2025дан - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри, Хужа Мушкин МФЙ, Алпомиш кучаси, 9-уй, 29-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги

16.04.2025 09:01
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

Қўшимча маълумотлар

| | | |
|--------------------------------------|------------------------------------|-----------------------------------|
| Оммавий ахборот воситасининг номи | Оммавий ахборот воситасининг тили | Оммавий ахборот воситасининг тури |
| OLIMLAR NIGONI ilmiy-ommabop jurnali | o'zbek tili, rus tili, ingliz tili | Журнал |

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

| | | |
|----------------------------|---------|------------------|
| Тарқатилиш ҳудуди ва шакли | Viloyat | Тарқатилиш шакли |
| Республика миқёсида | | Анъанавий |



**“OLIMLAR NIGOHI”
ILMIY OMMABOP JURNALI**
№ 6-son, 2026

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

**“Olimlar nigohi” ilmiy ommabop jurnal.
Buxoro, 2026. № 6-Son.**